

**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**GENDER DISCOURSE IN UZBEK AND ENGLISH CULTURES****Laylo Rahimovna Raupova***Professor**Renessans Education University, Doctor of Philology**Toshkent, Uzbekistan***Feruza Akhmedova***Independent Researcher**Teacher at Angren University**Toshkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: Gender discourse, Uzbek culture, English culture, comparative analysis, literature, gender stereotypes, cultural context, Tokhir Malik, Agatha Christie.

Received: 23.12.25**Accepted:** 24.12.25**Published:** 25.12.25

Abstract: This article is dedicated to a comparative analysis of gender discourse in Uzbek and English cultures, reflecting gender stereotypes, traditional and modern perspectives through the works of Agatha Christie and Tokhir Malik. Based on the theoretical views of Russian, Uzbek and English scholars, the similarities and differences in the two cultures are shown. The article explores the cultural context of gender discourse, its manifestation in literature, and its significance in society.

O‘ZBEK VA INGLIZ MADANIYATLARIDA GENDER DISKURSI**Laylo Rahimovna Raupova***Renessans ta’lim universiteti professori**filologiya fanlari doktori**Toshkent, O‘zbekiston***Feruza Axmedova***Mustaqil izlanuvchi**Angren Universiteti o‘qituvchisi**Toshkent, O‘zbekiston***МАҚОЛА ҲАҚИДА**

Kalit so‘zlar: Gender diskursi, o‘zbek madaniyati, ingliz madaniyati, solishtirma tahlil, adabiyot, gender stereotiplari, madaniy kontekst, Tohir Malik, Agata Kristi.

Annotatsiya: Ushbu maqola o‘zbek va ingliz madaniyatlarida gender diskursining solishtirma tahliliga bag‘ishlangan bo‘lib, Agata Kristi va Tohir Malik asarlari orqali

gender stereotiplari, an'anaviy va zamonaviy qarashlar aks ettirilgan. Rus, o'zbek va ingliz olimlarining nazariy qarashlari asosida, ikki madaniyatdagi o'xshashlik va farqlar ko'rsatib beriladi. Maqolada gender diskursining madaniy konteksti, adabiyotdagi namoyon bo'lishi va jamiyatdagi ahamiyati o'rganiladi.

ГЕНДЕРНЫЙ ДИСКУРС В УЗБЕКСКОЙ И АНГЛИЙСКОЙ КУЛЬТУРАХ

Лайло Рахимовна Раупова

Профессор

Университета образования «Ренессанс», доктор филологических наук

Ташкент, Узбекистан

Феруза Ахмедова

Преподаватель

Ангренского университета, независимый исследователь

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Гендерный дискурс, узбекская культура, английская культура, сравнительный анализ, литература, гендерные стереотипы, культурный контекст, Тохир Малик, Агата Кристи.	Аннотация: Данная статья посвящена сравнительному анализу гендерного дискурса в узбекской и английской культурах, с использованием произведений Агаты Кристи и Тохира Малика для отражения гендерных стереотипов, традиционных и современных взглядов. На основе теоретических взглядов русских, узбекских и английских ученых показаны сходства и различия в двух культурах. В статье исследуется культурный контекст гендерного дискурса, его проявление в литературе и значение в обществе.
--	---

Globalizatsiya davrida turli madaniyatlar o'rtasidagi munosabatlar kuchayishi bilan bir qatorda, gender masalalari ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Gender diskursi – bu jamiyatda gender rollari, stereotiplari va gender tengligi haqidagi fikrlar, g'oyalar va munosabatlarni aks ettiruvchi tildir. Ushbu maqola o'zbek va ingliz madaniyatlarida gender diskursining o'ziga xos xususiyatlarini solishtirma tahlil qilishga bag'ishlangan. Tahlil uchun Agata Kristi (ingliz) va Toxir Malik (o'zbek) asarlaridan olingan misollar foydalaniladi.

Gender diskursini tahlil qilishdan avval uning nazariy asoslariga to'xtalish lozim. Diskurs nazariyasi til ijtimoiy amaliyot sifatida qanday ishlatilishini o'rganadi. Gender diskursi esa, tilning gender rollarini shakllantirish, mustahkamlash yoki o'zgartirishdagi rolini tahlil qiladi. Ba'zi olimlar gender diskursi jamiyatdagi hokimiyat munosabatlarini aks ettiradi va gender tengsizligini mustahkamlaydi deb hisoblaydi. Boshqa tadqiqotchilar esa gender diskursining

o'zgaruvchanligini va shaxslarning o'z gender identifikatsiyasini qurishda muhim rol o'ynashini ta'kidlaydilar. Xarlamova (2010) gender diskursini ijtimoiy-siyosiy hodisa sifatida o'rganadi va uning jamiyatdagi hokimiyat munosabatlari bilan bog'liqligini ta'kidlaydi. U gender stereotiplarining kelib chiqishi va ularning jamiyatga ta'siri masalalariga alohida e'tibor qaratadi. Ingliz olimlaridan Mills (2003) gender diskursini diskurs tahlili nuqtai nazaridan o'rganadi va tilning gender rollarini shakllantirishdagi rolini tahlil qiladilar. U gender identifikatsiyasi va gender performativligi masalalariga katta ahamiyat beradi.

Gender diskursini tushunish uchun o'zbek va ingliz madaniyatlarining tarixiy-madaniy kontekstini ko'rib chiqish muhimdir.

O'zbekiston tarixida gender rollari an'anaviy oilaviy qadriyatlar va islom dini bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. An'anaviy o'zbek oilasida erkak oila boshlig'i va ta'minotchisi, ayol esa uy bekasi va ona sifatida qaralgan. Sovet davrida ayollarning ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishi rag'batlantirilgan bo'lsa-da, gender stereotiplari to'liq bartaraf etilmadi. Mustaqillik yillarida o'zbek madaniyatida an'anaviy qadriyatlarga qaytish tendentsiyasi kuzatilmoqda, bu esa gender diskursiga o'z ta'sirini o'tkazmoqda.

Ingliz madaniyati tarixida ham gender rollari o'zgarib kelgan. Viktoriya davrida ayollarning jamiyatdagi o'рни cheklangan bo'lib, ularning asosiy vazifasi oilaga g'amxo'rlik qilish deb hisoblangan. XX asrda feminist harakatlar tufayli ayollarning huquqlari kengaydi va gender stereotiplariga qarshi kurash kuchaydi. Biroq, ingliz madaniyatida ham gender tengsizligi muammosi to'liq hal etilmagan.

Adabiyotshunos Baxtin ta'kidlab o'tganidek, milliy adabiyotshunoslikning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish uchun ularni chet el adabiyoti bilan solishtirib o'rganish kerak. Shunday ekan, Agata Kristi (ingliz) va Toxir Malik (o'zbek) asarlarida gender diskursining qanday aks etishini ko'rib chiqamiz.

Agata Kristi asarlarida gender diskursi: Agata Kristi detektiv romanlarining mashhurligi uning qahramonlarining rang-barangligi va gender rollarini qanday tasvirlashiga bog'liq. Ko'pgina romanlarida ayollar kuchsiz, yordamga muhtoj qilib ko'rsatilsa-da, Miss Marpl kabi qahramonlar stereotiplarni buzadi. Miss Marpl – keksa ayol bo'lishiga qaramay, aql-zakovatligi va kuzatuvchanligi tufayli murakkab jinoyatlarni fosh eta oladi. Biroq, shuni ta'kidlash lozimki, Kristi asarlarida ayollar ko'pincha hissiyotga beriluvchan, erkaklar esa mantiqiy fikrlaydigan qilib tasvirlanadi. Bu, gender stereotiplarining romanda aks etishiga misol bo'la oladi.

“ABC qotilliklar” romanida (The ABC Murders) garchi roman detektiv Erkyul Puaro nuqtai nazaridan yozilgan bo'lsa-da, romandagi ayol qahramonlar ham muhim rol o'ynaydi. Roman voqealari davomida ular turli darajadagi aql, hissiyot va xatti-harakatlarni namoyon etishadi. Qurbonlardan birining yaqinlarining aksariyati ayollar bo'lib, ularning har biri o'ziga xos

xarakterga ega. Ayrim ayollar qat'iyatli va mustaqil bo'lsa, boshqalari ko'proq an'anaviy va passiv. Masalan, roman qahramoni, Elis Esher, oilasining tashvishini zimmasiga olgan, ayanchli turmush o'rtoq bilan hayot kechirgan va iqtisodiy qiyinchiliklarga duch kelgan ayol sifatida tasvirlangan.

Quyida asardan kichik iqtibosni keltirib o'tamiz

“Death, mademoiselle, unfortunately creates a prejudice. A prejudice in favour of the deceased. I heard what you said just now to my friend Hastings. ‘A nice bright girl with no men friends.’ You said that in mockery of the newspapers.”

Ushbu iqtibosda “a nice bright girl with no men friends” degan fikr orqali jamiyatda yosh ayol haqida tez-tez uchraydigan stereotip — “yoqimtoy, ma'suma, erkak do'stlari yo'q” — tilga olinadi. Detektiv bu gapga e'tibor qaratib, “death creates a prejudice ... in favour of the deceased” deb aytadi. Ya'ni, ayol qurbon bo'lganda, unga nisbatan ko'proq ijobiy fikrlar, stereotipik tasvirlar tez paydo bo'ladi. Bu gender jihatdan muhim: ayollarga nisbatan “yoqimtoy hamda hech qanday erkak aloqasi yo'q” degan idealizatsiya qo'yilishi va hatto qurbon holatda bu idealizatsiya kuchliroq bo'lishi asarda yaqqol namoyon bo'lgan.

Puaro ushbu gapni tahlil qilib, “Do you know what I should like this minute? I should like to find someone who knew Elizabeth Barnard and who does not know she is dead! Then, perhaps, I should hear what is useful to me—the truth.” deb davom ettiradi. Detektiv erkak — Puaro — asar davomida ayol obrazini tahlil qiladi va “qurbonligi” ortidan yuzaga kelayotgan jamiyat muammolarini yuzaga chiqaradi. Bu yerda erkak vakolatli pozitsiyada turib (detektiv rovida) ayolni — o'zidan nisbatan zaifroq, voqea fonida passivroq sub'ekt (qurbon yoki guvoh) shaklda tasvirlaydi. Gender jihatdan bu ayol vakolatsiz holatda, erkak esa harakat qiluvchi va tahlil qiluvchi pozitsiyada ekanligini ko'rsatadi. Bu holat klassik detektiv janrida keng tarqalgan bo'lib, gender jihatdan bu o'sha zamonga xos bo'lgan normativ tuzilmaning namoyon bo'lishi sifatida qabul qilinadi.

“The A.B.C. Murders” asarida gender tuzilmalari, xususan, ayol qurbonlar va erkak tahlilchi (detektiv) rollari orqali jamiyatdagi ayollar haqidagi taxminlar, idealizatsiya va vakolat strukturalari namoyon bo'ladi. Ayollar ideal “yoqimtoy”, “hech qanday erkak aloqasi yo'q” degan tasvirga tushadi, erkak esa harakat qiluvchi, tahlilchi pozitsiyada. Bu jihatdan asarni gender jihatdan tahlil qilish o'quvchiga asarning yangi qirralarini ochadi.

Tohir Malik asarlarida gender diskursi: Tohir Malik o'zbek adabiyotining taniqli vakili sifatida o'z asarlarida o'zbek jamiyatidagi gender munosabatlarini aks ettiradi. Uning romanlarida an'anaviy gender rollari bilan bir qatorda, ayollarning o'z huquqlari uchun kurashi, mustaqil hayot qurishga intilishi ham tasvirlangan. Ayrim asarlarida erkaklar zulmidan aziyat chekayotgan ayollar

obrazi yaratilsa, boshqa asarlarida kuchli va mustaqil ayollar obrazi gavdalantirilgan. Bu, o'zbek adabiyotida gender diskursining o'zgarib borayotganligidan dalolat beradi.

Toxir Malikning "Shaytanat" asari qahramoni Asadbekning ham o'z odatlariga sodiq qolgan holda, ayoli, Manzura bilan yuqorida ta'kidlab o'tilgan asnodagi suhbatlariga guvoh bo'lamiz.

Manzura boshini egib, yig'lab yubordi. Asadbek, shu paytgacha xotinini chertmagan odam, tarsi—ki qo'yganini o'zi ham sezmay qoldi.

— Gapir, deya pman!

O'zini qo'lga olish uchun Manzura shu tarsi—ki kifoya edi.

— Mengina o'lay... qizingiz... aytolmayman, dadasi...

— Gapir, huddi bo'gib tashlayman, — Asadbekning ovozi tahdidli, bu shunchaki bir popisaga o'xshamas edi.

— Qizingizni bir ahvolda tashlab ketishdi.

Adiblar bu usulni asar qahramoni obrazini yorqinroq ochib berish maqsadida qo'llashadi. O'zbek ayoli tabiatidagi itoatkorlik va eriga hurmat tuyg'usi ularga bunday qo'pol muomalalarga ham bardosh berishga yordam beradi. Bundan tashqari, faqat ayollar nutqida ishlatiladigan undovlar asarda gender farqlarining mavjudligini ko'rsatadi. Masalan, Manzuraning "mengina o'lay" (ya'ni, "siz uchun o'lishga tayyorman") degan ibora faqat o'zbek ayollari tomonidagina qo'llaniladi. Ayolning nutqida uzilishlar bor ("Mengina o'lay... qizingiz... aytolmayman, dadasi...") — bu uning ruhiy holatini, so'zlayotgan vaqtidagi asabiyligini aks ettiradi, shu bilan birga bu holat ayolning mavqe jihatdan zaif ekanligini til orqali bildiradi. Bu badiiy uslubga xos. Erkakning nutqi esa aniq, to'liq gap — "Gapir, huddi bo'gib tashlayman" — imperativ, to'liq jumla. Bu uning hukmron pozitsiyasini bildiradi. Asadbek "shu paytgacha xotinini chertmagan odam" sifatida tasvirlangan, ya'ni odatda nazorat qilmaydigan, jim odam, lekin hozir tarsi—ki tushiradi. U erkak rolida — odatda mustahkam, hokim, favqulodda holatda keskin qaror chiqaradigan biri sifatida ko'rsatilgan.

Faqat o'zbek madaniyatigagina xos bo'lgan xususiyatlardan yana biri shuki, erkak ayolga qarata ismi bilan murojaat qilmaydi (zamonaviy adabiyot na'munalarida bunday holat kam uchraydi: "Shaytanat" asaridan Elchinning ayoliga murojaati), ayol ham o'z navbatida erkak kishining unga nisbatan ijtimoiy yoki qarindoshlik munosabatidan kelib chiqib munosabat bildiradi, uchinchi shaxsga ma'lumot berish jarayonida "akangiz", "mulla akangiz", "dadangiz", "kuyovingiz", "ukangiz" ayollar nutqida; "yangang", "kelinoying", "keliningiz", "singlingiz" kabi undalmalar erkaklar nutqida tez-tez uchrab turadi; agar oila farzandli bo'lsa, bir-birlariga nisbatan "ayasi", "onasi", "dadasi" singari 3-shaxs shaklidagi undalmalardan keng foydalanadi:

– Дадаси, танчанинг чўғини очиб қўйинг. Тойчоғингиз совқотибди, – деди. Дадаси энгашиб, кўрпанинг бир томонини кўтарди-да, кулини титиб, чўғни очди. Кейин чиқиб кетишди.

Solishtirma Tahlil:

O‘zbek va ingliz adabiyotida gender diskursining aks etishida quyidagi o‘xshashlik va farqlarni kuzatish mumkin.

Tahlil mezonlari	Agata Kristi asarlarida gender diskursi	Tohir Malik (“Shaytanat”) asarida gender diskursi
Ayol qahramonlar roli	- Ko‘pchilik asarlarda ayollar stereotipik: kuchsiz, hissiyotga beriluvchan.- Ammo Miss Marpl kabi qahramonlar stereotiplarni buzadi: keksa, ammo sehrli kuzatuvchanlik va aqli bilan murakkab jinoyatlarni fosh qiladi. Miss Marpl o‘zining “ayollik” jihatlaridan (gossip, intuisiya) foydalanadi va erkak qahramonlarga qaraganda alohida ustunlikka ega bo‘ladi.	- Ayollar an‘anaviy rollarda: itoatkor, oila mas‘uliyati, og‘ir turmush. Misol: Manzura obrazi Asadbek (eri) oldida zaiflik, hissiyot hamda jamiyatdagi cheklovlar borligini til orqali, nutq uslubi orqali namoyon qiladi.
Erkak qahramonlar roli	- Erkak detektivlar, masalan Erkyul Puaro, mantiqiy tahlilchi sifatida ko‘rsatiladi.- Erkak pozitsiya: faol harakat qiluvchi, holatni tahlil qiluvchi, nazorat qiluvchi sub’ekt.- Shu bilan birga, ayrim asarlarda erkaklar “klassik detektiv” roli bilan gender norma va stereotiplarni mustahkamlaydi.	- Erkaklar hokimiyatda: Asadbek — oilada hukmron, hokim, qaror chiqaruvchi.- Erkak nutqi (“Gapir, huddi bo‘gib tashlayman”) orqali «vakolatli» va tajovuzkor pozitsiyani ko‘rsatadi.- Erkak ziddiyatlari: erkak ayolni nazorat qiladi, ayol esa zamonaviy ijtimoiy va gender cheklovlar ichida qoladi.
Stereotip va ularning buzilishi	- Kristi stereotiplarni ham mustahkamlaydi, ham qisman buzadi. Masalan, Miss Marpl stereotipik “keksaygan, yolg‘iz ayol”	- Tohir Malikda an‘anaviy o‘zbek gender rollari: ayol eriga hurmat ko‘rsatadi, itoatkor.- Ayollarning nutqi va nutq uslubi orqali zaiflik, ruhi nozikligi va ijtimoiy roli yaqqol

Tahlil mezonlari	Agata Kristi asarlarida gender diskursi	Tohir Malik (“Shaytanat”) asarida gender diskursi
	obrazidan foyda ko‘radi, lekin u juda aqlli va ustunlikka ega. - U “ayollik” jihatlaridan (intuisiya, g‘iybatga moyil xarakter) foydalangan holda jinoyatni hal qiladi. - Shu bilan birga, ba’zi asarlarda ayollar “yoqimtoy”, “ma’suma” sifatida idealizatsiya qilinadi, ayniqsa qurbon holatida.	ko‘rsatiladi (“mengina o‘lay ...”).- Biroq, bu stereotiplar faqat bir tomonlama emas — ba’zi ayol obrazlari mustaqil va qaror chiqaruvchidir, bu o‘zgarayotgan jamiyat va gender munosabatlariga dalolat beradi.
Vakolat va ustunlik	- Miss Marpl ustunlikka ega: u qotillikni tushunadi, odamlar bilan suhbatlashadi, kuzatuvlar qiladi va tahlil qiladi. Ammo u ko‘pincha erkak yoki rasmiy idoralarga tayanadi — masalan, politsiya orqali o‘z kuzatuvlarini amaliyotga kiritadi. - Bu “ayol ustunligi” va “erkak detektiv” roli o‘rtasida murakkablikni ko‘rsatadi.	- Manzura (ayol) mustaqilligi cheklangan: u o‘z hislarini va holatini ifodalasa-da, Asadbek (erkak) ustun pozitsiyada.- Erkak va ayol o‘rtasidagi ijtimoiy va muloqot strukturasi — erkak hokim, ayol bo‘ysunuvchi.- Shu bilan birga, ayollar o‘z hissiyotlari va zaifliklari orqali o‘z “kurash” usullarini topadi, bu esa ularning ichki ustunligini ko‘rsatadi.
Gender stereotiplarining ijtimoiy refleksiyasi	- Agata Kristi asarlari o‘z davridagi jamiyat stereotiplarini aks ettiradi: ayol “yumshoq tabiatli”, “hissiyotli”, erkak “mantiqiy”, “analitik”. - Shu bilan birga, u bu stereotiplarni tanqidiy tarzda ishlab chiqadi: Miss Marpl qaltis stereotipdan foydalansa-da, aslida juda kuchli va muhim qahramondir.- Ba’zi tadqiqotlarga ko‘ra, uning ishlari gender normativlarini “qo‘llab-quvvatlash” va “qayta	- Tohir Malik asarida gender stereotiplari o‘zbek ijtimoiy kontekstida shakllangan: ayol oilaga, erga hurmat, jamiyatdagi an’anaviy roli.- Asar ayollarning ijtimoiy bosimi va cheklovlarini, shuningdek, erkak hokimiyati va nazoratini ko‘rsatadi.- Shu bilan birga, ayollarning zaifligi va mantiqdan ko‘ra hissiyotga asoslanganligi stereotipi ishlatilsa-da, ba’zi oyatlarda ayollar mustaqil bo‘lishga intiladi, bu o‘zbek jamiyatidagi gender

Tahlil mezonl	Agata Kristi asarlarida gender diskursi	Tohir Malik ("Shaytanat") asarida gender diskursi
	qurish" ni bir vaqtda amalga oshiradi.	munosabatlarining dinamikligini aks ettiradi.

Agata Kristi va Tohir Malik asarlarini solishtirish orqali gender diskursi sohasida qiziqarli va muhim farqlar hamda o'xshashliklar aniqlanadi. Agata Kristi detektiv romanlarida ayollar ko'pincha stereotipik jihatdan tasvirlangan — hissiyotga ega, kuchsiz bo'lishi mumkin — lekin u Miss Marpl kabi kuchli, aqli bor ayol obrazlarini yaratish orqali bu stereotiplarni muvaffaqiyatli buzadi. Miss Marpl kekxa, yolg'iz ayol bo'lishiga qaramay, uning kuzatuvchanligi, intuitsiyasi va tahliliy qobiliyati erkak qahramonlarga qaraganda kamroq kutilgan ustunlikka olib keladi. Shu bilan birga, Kristining erkak detektivlari (masalan, Puaro) asarda nazorat qiluvchi va harakat qiluvchi sub'ekt rolida — mantiqiy tahlilchi sifatida namoyon bo'ladi, bu esa klassik detektiv janridagi gender strukturasini saqlab qoladi.

Tohir Malikning "Shaytanat" romanida esa gender diskursi o'zbek ijtimoiy-madaniy kontekstda aks etadi. Asarda ayollar an'anaviy rolda — erga itoatkor, oilaviy mas'uliyatni zimmasiga olgan holatda ko'rsatilgan, lekin ular hissiyotlari, nutq uslubi va ichki kurashlari orqali oilada fikrini bayon eta olish, ayrim holatlarda esa ustunlikka ega bo'lish usullarini topishadi. Erkak obrazlari (masalan, Asadbek) esa hokimiyat va nazorat pozitsiyasida bo'lib, gender vakolati va strukturasini tahliliy ravishda o'rganiladi. Shu bilan birga, ayollarning bo'ysunuvchanligi va zaifligi stereotiplari bir tomondan ishlatilsa-da, Tohir Malik ularga o'z ijtimoiy cheklovlari ichida kurashish va qarorlar qabul qilish imkoniyatlarini ham beradi.

Umuman olganda, Agata Kristi va Tohir Malik asarlarida gender stereotiplari nafaqat mustahkamlanadi, balki tanqidiy jihatdan qayta ishlanadi. Agata Kristi klassik detektiv janrining cheklovlarini kengaytiradi va ayol detektivga katta ustunlik beradi, Tohir Malik esa o'zbek jamiyatidagi gender strukturasini va ijtimoiy rol masalalarini chuqur yoritadi. Shu tariqa, ikkala yozuvchi ham gender diskursini badiiy asarda nafaqat aks ettiruvchi, balki uni tahlil qiluvchi va qayta konseptualizatsiya qiluvchi vosita sifatida ishlatgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Butler, J. (1990). Gender Trouble: Feminism and the Subversion of Identity. Routledge.
2. Christie, A. (1936). The ABC Murders. Collins Crime Club.
3. Fairclough, N. (1992). Discourse and Social Change. Polity Press.
4. Foucault, M. (1977). Discipline and Punish: The Birth of the Prison. Allen Lane.
5. Gill, G. (2007). Agatha Christie: The Woman and Her Mysteries. Free Press.

6. Kahn, K. F., & Goldenberg, E. N. (1991). The media: Helpful or harmful to women candidates?. PS: Political Science & Politics, 24(3), 494-498.
7. Massell, G. J. (1974). The Surrogate Proletariat: Moslem Women and Revolutionary Strategies in Soviet Central Asia, 1919-1929. Princeton University Press.
8. Mills, S. (2003). Gender and discourse. Routledge.
9. Quronov, B. (2015). O'zbek adabiyoti tarixi. Akademnashr.
10. Showalter, E. (1977). A Literature of Their Own: British Women Novelists from Brontë to Lessing. Princeton University Press.
11. Харламова, Т. В. (2010). Гендерные стереотипы в современной российской культуре. Вестник Челябинского государственного университета, (33), 123-127.